



UDK:796(071)

Zilola NAZAROVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi

E-mail: zilolaxayrullayevna91@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori, akademik G'.Shumarov taqrizi asosida

O'SPIRIN YOSHIDAGI BOKSCHILARIMIZNING SPORT MUVAFFAQIYATIGA ERISHISHIDA METODIKALARNING INTERKORRELYASION XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bokschi yoshlarning sport muvaffaqiyatiga erishishida ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Bir nechta metodikalarning interkorrelyasion xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, maqsad, bokschi-yoshlar.

ВЗАИМОКОРРЕЛЯЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ МЕТОДОВ ДОСТИЖЕНИЯ СПОРТИВНЫХ УСПЕХОВ У ПОДРОСТКОВ БОКСЕРОВ

Аннотация

В данной статье изучаются факторы, влияющие на успехи юных боксеров в спорте. Описаны интеркорреляционные свойства нескольких методов.

Ключевые слова: Мотивация, цель, боксер-молодежь.

“INTERCORRELATION CHARACTERISTICS OF METHODS OF SPORTS SUCCESS OF OUR TEENAGE BOXERS”

Annotation

In this article, the factors affecting the success of young boxers in sports are studied. The intercorrelation properties of several methods are described.

Key words: Motivation, goal, boxer-youth.

Motivatsiyaga keng ma'noda inson hayotining murakkab, ko'p qirali boshqaruvchisi deb qaraladi. Inson xayoti anglangan va anglangan hollarda boshqarilishi mumkin. Shulardan oliy darajadagi boshqarilish anglangan irodaviy boshqarilish hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarimizni yanada aniqlashtirib,

1-Jadval

Elersning muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasi o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorligi (Sperman mezon bo'yicha)

	Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi
Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi	-0,217(**)

Izoh: ** $p < 0,01$.

Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash metodikalari orasidagi o'zaro korrelyatsion munosabatlar tahlil etilganda bir qator qiziqarli natijalar qo'lga kiritildi. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi o'rtasida ishonch darajasidagi manfiy munosabat kuzatildi ($r = -0,217$;

2-Jadval

Elersning “Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va Gerbachevskiyning “Shaxs motivatsiyasini aniqlash” so'rovnomasi metodikasi Spirmen mezon bo'yicha korrelyatsion tahlil natijalari tasvifi

Nomlanishi	Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi
Ichki motiv	0,512**
Bilish motivi	0,361(**)
Qochish motivi	-0,415(**)
Musobaqalashuv motivi	0,543(**)
Faoliyatni almashirish xohishi	-0,462(**)
O'zini e'zozlash motivi	0,385(**)
Natijalarning ahamiyatligi	-0,021
Vazifalarning murakkabligi	0,066
Irodaviy quvvat	0,350(**)
Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	-0,045
O'z imkoniyatlarini baholash	0,264(**)
Quvvatni safarbar eta olinganlik	0,155(*)
Faoliyat natijalarning kutilayotganlik darajasi	0,039
Natijalarning qonuniyatlari	0,112
Tashabbuskorlik	0,094

Izoh: $p > 0,05$; * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

Natijalar diqqat bilan o'rganilganda bir qator musbat va manfiy korrelyatsion munosabatlar mavjud ekanligi aniqlandi.

motivatsiyaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: motivatsiya - insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida extiyojlar, motivlar, qiziqishlar, ideallar, intilishlar, moslashishlar, emotsiyalar, normalar, qadriyatlar va x.k.larni mujassamlashtiradi [2].

$p < 0,01$) Yani bokschilarda mag'lubiyatdan qochish qanchalik ko'p kuzatilsa muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasiga ta'siri shuncha past bo'ladi. Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi qanchalik past darajada kuzatilsa, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi yuqorilab boradi deyishimiz mumkin.

Xususan, V.Gerbachevskiy “Shaxs motivatsiyasini aniqlash” so'rovnomasining shkalalaridan biri bo'lganichki motiv bilan muvaffaqiyatga erishish motivi orasiga o'zaro musbat

bog'liqlik mavjud ekanligi namoyon bo'ldi. ($r=0,512$; $p<0,01$). Yani ichki motivning yuqori ko'rsatkichda namoyon bo'lishi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchli bo'lishi mumkin ekan. Buni yana shunday izohlashimiz mumkin. Insonning ichki motivi kuchli va doimiy tarzda mavjudligi muvaffaqiyatga erishishi uchun muhim sanalar ekan. Insonda eng avvalo o'zida ichki xohishi, har qanday faoliyatda o'zi istagandek yutuqlarga erishishida zamin hisoblanadi.

Shuningdek bilish motivining yuqori bo'lishi muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining ham yuqori bo'lishi bilan izohlanar ekan. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va bilish motivatsiyasi o'rtasida ham ishonch darajasidagi musbat munosabat kuzatildi ($r=0,361$; $p<0,01$). Demakki, inson o'zining sohasida mavjud bilimlarni to'liq va ma'suliyat bilan egallashi tanlagan yo'nalishida muvaffaqiyatga erishishida eng asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Qochish motivi hamda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi orasida ham ishonch darajasidagi manfiy bog'liqlik mavjudligi kuzatildi. ($r=-0,415$; $p<0,01$) Bokschilarimiz o'z natijalarini past bo'lishidan qochib, jang qilmaslikka harakat qilishi yoki mag'lubiyat haqida haddan oshiq ko'p o'ylashi natijasida muvaffaqiyatga nisbatan motivatsiya pasayib ketishi holatlari kuzatilishi mumkin ekanligi aniqlandi.

Musobaqalashuv motivi shkalasi hamda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasining korrelyatsion tahliliga ko'ra o'zaro ishonch darajasi musbat natija mavjudligi kuzatildi ($r=0,543$; $p<0,01$). Musobaqalashuv motivi yani natijalarning boshqalarnikidan ustunroq bo'lishga harakat qilish muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan motivatsiyani oshishiga olib kelishi mumkin ekan.

Faoliyatni almashtirish xohishi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shkalalari o'rtasida ham ishonch darajasidagi manfiy bog'liqlik mavjud ekanligini kuzatildi ($r=-0,462$; $p<0,01$). Bokschining o'z faoliyatini almashtirish xohishi o'ziga ishonchsizlik yoki faoliyatidan zirrikish, sovish kabi yoki shunga o'xshash yengib o'tsa bo'ladigan ruhiy holatlar bilan faoliyatini o'zgartirish xohishi oshib borsa muvaffaqiyat sari intilish motivatsiya pasayib borishi mumkin ekanligini ko'rdik. Yani yetakchi istak va faoliyat sport hamda undagi muvaffaqiyat emas balki faoliyatni almashtirishga bo'lgan xohish ustunlikka chiqib, yetakchi faoliyatga aylanadi hamda muvaffaqiyatga bo'lgan qiziqish so'nib ketishi kuzatilishi mumkin.

O'zini e'zozlash motivi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shkalalari o'rtasida ham ishonch darajasidagi musbat bog'liqlik mavjud ekanligini kuzatildi ($r=0,385$; $p<0,01$). O'zini e'zozlash ham sportchida katta imkoniyatlarni beradi. O'zini e'zozlash orqali sportdagi har bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish mumkin.

Natijalarning ahamiyatligi hamda vazifalarning murakkabligi shkalalari muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi (Spermin korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha)

Nomlanishi	Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi
Ichki motiv	-0,093
Bilish motivi	-0,173**
Qochish motivi	0,233**
Musobaqalashuv motivi	-0,255**
Faoliyatni almashtirish xohishi	0,124*
O'zini e'zozlash motivi	-0,125*
Natijalarning ahamiyatligi	,066
Vazifalarning murakkabligi	,087
Irodaviy quvvat	-0,164**
Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	0,011
O'z imkoniyatlarini baholash	-0,096
Quvvatni safarbar eta olinganlik	-0,089
Faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi	-0,009
Natijalarning qonuniyatlari	-0,049
Tashabbuskorlik	-0,050

Izoh: $p>0,05$; * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

Shaxs motivatsiyasini aniqlashga yo'naltirilgan V.Gerbachevskiy so'rovnomasining shkalalaridan biri bo'lgan bilish motivi bilan mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi orasiga o'zaro manfiy bog'liqlik mavjud ekanligi namoyon bo'ldi. ($r=-0,173$; $p<0,01$). Sportchida bilish motivining past bo'lishi mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasining yuqori bo'lishiga sabab bo'lar ekan. Yani sport bilimlarini to'liq egallay olmagan sportchi o'z-o'zidan berilgan topshiriqlarni noto'g'ri bajaradi hamda buning natijasida mag'lubiyat haqida ko'p o'ylash holati namoyon

metodikasi o'rtasidagi ishonchli korrelyatsion bog'liqlik kuzatilmadi.

Muvaffaqiyatga erishish va irodaviy quvvat shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsion munosabat kuzatildi ($r=0,350$; $p<0,01$). Yani bokschilarda irodaviy quvvatini kuchli, chidamliligi barqaror bo'lsa, muvaffaqiyatga erishishi ham kuchayishi mumkin ekan. Iroda bu shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarish demakdir [1].

Iroda uchun irodaviy xatti-harakat motivatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu bois irodaning negizini shaxsning xatti-harakatlari va ishlarining keng ko'lamliligi, rang-barang xususiyatli motivlashtirilishiga omil(turki) tariqasidagi ehtiyojlarni vujudga keltiradi [4].

Psixolog olim S.L.Rubinshteynning e'tirofi etishicha, irodaning manbai ehtiyojning faol jihati bo'lib, u o'ziga jalb qilish, istak yoki xohish ko'rinishida ifodalanadi [6].

Ehtiyojlar xatti-harakatlarga turtki (energiya), yo'nalish va barqarorlikni beradi deb ishonilgan [5,8].

Kiyingi shkalamiz natijalarga erishganlik darajasining bahosi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining korrelyatsion bog'liqlik kuzatilmadi.

Natijalar tahliliga ko'ra o'z imkoniyatlarini baholash shkalasi hamda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikalari o'rtasidagi musbat proporsional bog'liqlik mavjud ekanligini kuzatdik. ($r=0,264$; $p<0,01$). Yani bokschilarimizning o'zida mavjud imkoniyatlarini to'g'ri, aniq va yuqori baholay olishi, o'ziga nisbatan adekvat baho qo'ya olishi demak tanlangan sport faoliyatida yutuqlarga erisha olishiga bog'liqlikda amalga oshar ekan.

Quvvatni safarbar eta olinganlik shkalasi hamda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikalari orasida ham musbat korrelyatsion bog'liqlik mavjud ($r=0,155$; $p<0,05$). Bokschilarimizning o'zidagi kuchi, irodasi, quvvatini to'g'ri safarbar eta olishligi juda muhim. Ayniqsa jang vaqti o'zidagi quvvatni ham aniq ham qay darajada mavjudligiga qarab, raqibi bilan jangni davom ettira olish bilimining yuqori bo'lishi muvaffaqiyatga erishish bilan uzvish bog'liq. Muvaffaqiyatni qo'lga kiritishi yuqorilab boradi.

Faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi, natijalarning qonuniyatlari, tashabbuskorlik kabi shkalalarining muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi bilan ishonch darajasidagi korrelyatsion bog'liqlik kuzatilmadi.

3-Jadval

Gerbachevskiy so'rovnomasining va Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasi o'rtasidagi aloqadorlik ko'rsatkichlari

bo'ladi. Imkoniyatlari mag'lubiyat bilan yakun topish holati oshib boraveradi. Inson har qanday sohada bo'lmasin o'sha soha bilimlarini mo'qammal egallamas ekan o'zi va yaqinlari kutgan natijaga erisha olmaydi [7].

Elersning "Mag'lubiyatdan qochish motivatsiya" bilan "Shaxs motivatsiyasini aniqlashga yo'naltirilgan" Gerbachevskiy metodikasining qochish motivi shkalasi o'rtasida ham o'zaro ishonchli musbat korrelyatsion bog'liqlik mavjud ekan. ($r=0,233$; $p<0,01$). Demakki, natijalarning past bo'lishining oshishi

mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini ham yuqori bo'lishiga sabab bo'lar ekan. Musobaqalashuv motivining past bo'lishi hamda mag'lubiyatdan qochish motivatsiya o'rtasida ham manfiy korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lib ($r=-0,255$; $p<0,01$), bokschi yoshlarimizning musobaqalarga qatnashib o'zida mavjud kuchni safarbar eta olish motivining past bo'lishi sportchining mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini yuqorilishiga ham sabab bo'lar ekan. Faoliyatni almashtirish xohishi shkalasi bilan mag'lubiyatdan qochish motivatsiya o'rtasida ham musbat bog'liqlik mavjud ($r=0,124$; $p<0,05$). Sportchi yoshlarimizda faoliyatni almashtirish xoxishining oshib borishi bilan mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi ham yuqorilab borar ekan. Odam o'z oldiga maqsad qo'yadi, agar maqsad bo'lmasa faoliyat ham bo'lmaydi. Ehtiyoj bilan birga odamda faoliyatning motivlari, ya'ni muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lganichki turtki kuchlar paydo bo'ladi. Bu kuchlar odamni faoliyatga undovchi sababdir, maqsad esa odamning nimagadir intilishi, muayyan ishni bajarishidir. Maqsad hamma vaqt ham motiv bilan mos kelavermaydi. Ammo odamning maqsadi faoliyatning motivga aylangan taqdiridagina muhim omil bo'la oladi. Bunda odamda o'z oldiga qo'ygan vazifani mumkin qadar yaxshiroq bajarishga intilish paydo bo'ladi. Bu esa uning ehtiyoji bo'lib qoladi. Faoliyat motivlari eng yaqin yoki qisqa muddatli va uzoqni ko'zlovchi motivlar bo'ladi. Yaqinni ko'zlangan (qisqa muddatli) motivlar bilan ish ko'rsa, uning faoliyati istiqbolga ega bo'lmasligi mumkin. Bu esa odamning qiziqishlari cheklanganligidan, o'ziga ishonmaslikdan, beqarorlikdan dalolat beradi. O'lsini ko'zlab ish ko'ruvchi (olisni ko'zlangan) motivlar faoliyat qanchalik murakkab, qiyin bo'lmasin oldilariga qo'ygan maqsadni amalga oshirishga harakat qiladilar, qiyinchiliklarni yengib maqsadga erishishiga intiladilar. Demak, faoliyat maqsadlariga erishish uning motivlari mazmuniga bog'liqdir [3].

O'zini e'zozlash motivi shkalasi hamda mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasining korrelyatsion tahliliga ko'ra o'zaro ishonch darajasi manfiy natija mavjudligi kuzatildi ($r=-0,125$; $p<0,05$). Yani bokschi o'g'il-qizlarimiz o'zini-o'zi e'zozlashining past bo'lishi, imkoniyatlariga yuqori va adekvat baho bera olmasligi mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasining yuqori bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin ekanligini ko'rishimiz kerak. Bilim, ko'nikma, malakalarini qay darajada ekanligini anglagan holda o'zini va imkoniyatlarini e'zozlashi lozim.

Ayniqsa musobaqa oldi holatlarda raqib bilan bellashganida o'zini hurmat qilishi, e'zozlashi raqibini psixologik mag'lubiyatga uchratishiga zamin bo'lishi mumkin. O'ziga bo'lganishonchni raqib oldida ko'rsata bilish muhim sanaladi. Irodaviy quvvat shkalasi bilan mag'lubiyatdan qochish motivatsiya metodikasi o'rtasida ham o'zaro manfiy ishonchli korrelyatsion bog'liqlik mavjud ekan ($r=-0,164$; $p<0,01$). Irodaviy quvvatni past bo'lishi mag'lubiyatdan qochish motivatsiya yuqori bo'lishiga sababchi omil bo'lar ekan. "Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi". Shaxsning irodaviy harakatlari murakkab psixologik mazmun, mohiyat, ma'no kasb etishi bilan tavsiflanadi. Shuni ham eslash o'rinliki, shaxsda motivlar kurashining paydo bo'lishi uchun unga mas'uliyat, javobgarlik hissining yo'qlatilishi, irodaviy harakatni amalga oshirish zaruriyati tug'ilishi, mazkur vaziyatda shubhalanish, ikkilanish uyg'onishi favqulodda unda irodaviy zo'r berishlar vujudga kelishi lozim [4] demakki maqsadga erishishda, mag'lubiyat o'rnini muvaffaqiyat egallashida, motivlar barqarorligida irodaviy quvvatning mavjudligi muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Arziqulov, D.N. "Psixologiya va sport psixologiyasi" Darslik. Chirchiq 2020. 134, 195b.
2. Mannapova N.Sh. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish. // Biologiya va uni o'qitishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent.: TDPU- 2009. 48-50b.
3. Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya" T: 2010. 68b
4. G'oziyev E.G. "Umumiy psixologiya" 1 kitob T: 2002. 115, 240, 243b
5. Ветлужских Е.Н. «Мотивация и оплата труда. Инструменты. Методики. Практика». М.:2011. 20с.
6. Рубинштейн С.Л «Основы общей психологии». Питер, 2002.-666-720 с.
7. Nazarova Z.X. "Bokschi o'g'il bolalar va qizlarning motivatsiya holati natijalarning birlamchi tahlili". "Russian" "инновационные подходы в современной науке". 2023.
8. <https://www.unicef.org>.